**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

NAMOZOV JASUR SHOQULOVICH

UCH QATLAMLI QOVUSHOQ-ELASTIK PLASTINKALARNING ERKIN VA MAJBURIY TEBRANISH XUSUSIYATLARI

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

UDK: 539.3

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Technical Sciences

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

NAMOZOV JASUR SHOQULOVICH

UCH QATLAMLI QOVUSHOQ-ELASTIK PLASTINKALARNING ERKIN VA MAJBURIY TEBRANISH XUSUSIYATLARI

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4561 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bmti.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Usmonov Botir Shukurillayevich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Mardonov Botir Mardonovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor **Raxmonov Baxodir Sobirovich** texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 10 yanvar soat 11^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko‘chasi 15 uy. Tel.: (+99865) 223-78-84; faks: (+99865) 223-78-84, e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 337 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko‘chasi 15 uy. Tel.: (+99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 26 dekabr kuni tarqatildi.

(2024 yil 23 noyabrdagi № 1 raqamli reyestr bayonnomasi).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI BUXORO MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

M.X. Teshaev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori (DSc).

Z.I. Boltayev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor.

M.Z.Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik Ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda texnika va harakatlanuvchi transportlarda uchraydigan juda ko‘plab konstruksiya elementlarida ko‘p qatlamli plastinka va qobiqlarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida uch qatlamli plastinkalar boshqa detallar bilan o‘zaro ta’sirlashganda ularning dinamik holatini tadqiq etishni va uch qatlamli plastinkalardan foydalanishni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, uch qatlamli plastinkasimon konstruksiyalarning asos bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lgan holda xususiy va majburiy tebranish masalalarini o‘rganish va harakatlanuvchi transportlarda foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu borada ko‘pgina xorijiy davlatlarda, jumladan, AQSh, Kanada, Rossiya va boshqa davlatlarda harakatlanuvchi transportdagi vibratsiya va shovqinga qarshi kurashish muammosini yechish uchun uch qatlamli plastinkalardan foydalanish samarali ekanligiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda kema, samolyot va harakatlanuvchi transport vositalarining ko‘p qismlari ikki va uch qatlamli konstruksiyalardan tashkil topgan bo‘lib, bu konstruksiyalarning tashqi kuchlar ta’siridagi dinamik holatini baholashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, konstruksiyalar, asosan, uch qatlamli plastinka sifatida modellashtirilgan bo‘lib, uch qatlamli plastinka to‘ldiruvchisining bikrligini hisobga olish bilan va ularning qovushoqlik xususiyatlarini hisobga olib, dinamik holatini xarakterlovchi parametrlar (tebranishlar chastotasi hamda formasi)ni aniqlash usullarini ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, uch qatlamli plastinkalarda hosil bo‘ladigan dinamik zo‘riqishlar va deformatsiyalarni kamaytirish usullarini takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda uch qatlamli plastinkalarda hosil bo‘ladigan salbiy holatlarni kamaytirishga va plastinka qatlamlari bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi qatlam bikirligini tanlash hisobida konstruksiyaning mustahkamligini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida, jumladan, “…ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash,…”[1] vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, deformatsiyalanuvchi muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lgan uch qatlamli plastinkalarning tebranishlari masalalarida rezonans sohasidagi titrashlarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi PQ-4794-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4708-sonli 2020-yil 7-maydagi Prezident Qarori hamda

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni

mazkur faoliyatlarga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va innovatsion texnologiyalar rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika, inshootlar seysmodinamikasi va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikada uch qatlamli plastinkalarning erkin va majburiy tebranishlari muammosi bilan bog'liq nazariy hamda amaliy ilmiy tadqiqot ishlari X.A.Raxmatulin, M.T.O'razboyev, T.Sh.Shirinkulov, V.K.Kabulov, T.R.Rashidov, Y.N.Muborakov, B.M.Mardonov, K.S.Sultonov, Sh.M.Mamatqulov, M.M.Mirsaidov, F.B.Badalov, G.X.Xojmetov, I.Mirzayev, T.M.Mavlonov, A.Abdusattorov, I.I.Safarov, M.X.Teshaev, Sh.S.Yuldashev, Z.I.Boltayev B.S.Raxmonov va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan va ko'zlangan natijalarga erishilgan.

Bu muammo bo'yicha xorijiy mamlakatlarning taniqli olimlari A.A.Ilyushin, B.E.Pobedrya, V.V. Bolotin, I.E.Troyanovskiy, R.Mitra, Uayt, I.D.Grudev, A.G.Gorshkov, A.S.Volmir, F.G.Abdulla-Zade, V.I.Jeltkov, Chan Txan Xay, A.V.Lenskiy, Yu.N. Novichkov, A.N.Laputin, A.N.Antonov, Y.A.Lugovaya, Li Xiaowei, J.A.Nicholas, G.Vanneuville, M.Bourges, J.M.Garcier, M.Guillot, G.Poumarat va boshqalar shug'ullangan. Ular deformatsiyalanuvchi muhit bilan aloqada bo'lgan uch qatlamli plastinkada turg'un va turg'un bo'lmagan yuklanish masalalarini materiallarning reologik xususiyatlarini hisobga olib kuchlanish-deformatsiya holatini o'rganish usullarini rivojlantirishgan.

Shu bilan birga, V.V.Bolotin, Y.N.Novichkov "Механика многослойных конструкций" deb nomlangan asarida ko'p qatlamli plastinkaning deformatsiyalanuvchi muhit bilan o'zoro ta'sirda bo'lmagan va qovushoqligi hisobga olinmagan holda statika va dinamika masalalarini o'rgangan. A.G.Gorshkov, E.I.Starovoytov, A.V.Yarovaya "Механика слоистых вязкоупругопластических элементов конструкций" nomli kitoblarida keltirilgan.

Ko'p qatlamli plastinkaning xususiy va majburiy tebranishlari masalalarini yechishda maxsus funksiyalar yordamida asimptotik yechimlar olingan. Ular tomonidan olingan chastotalar haqiqiy sonlar bo'lib, hisoblashlarda, asosan, asimptotik formulalardan foydalangan.

Dissertatsiya ishida deformatsiyalanuvchi muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan uch qatlamli plastinkalarning harakat tenglamalari materialning qovushoqlik xususiyatlarini hisobga olib chiqarilgan hamda turli chegaraviy shartlar qo'yilganda masalalar yechish uchun algoritm va dastur yaratish bo'yicha izlanishlar olib borilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya inistituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 2017-2025-yillarga mo'ljallangan M.01.2017-raqamli "Fizik jarayonlarni matematik modellashtirish» mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi uch qatlamli plastinkaning qovushoq-elastik xususiyatlarini hisobga olib, uning erkin va majburiy tebranishlari masalalarini oʻrganish (kompleks chastota va tebranish formasini aniqlash, koʻchish amplituda – chastotasini orasidagi bog'lanishni qurish) uchun metodika va algoritm ishlab chiqish hamda sonli natijalar olib, uni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

uch qatlamli plastinkaning erkin va majburiy tebranish masalalarini materiallarning qovushoq-elastiklik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik qoʻyilishi, yechish metodikasi va algoritmini ishlab chiqish;

deformatsiyalanuvchi muhit bilan oʻzaro ta'sirda boʻlgan uch qatlamli plastinkaning erkin tebranish masalalarini materiallarning qovushoq-elastiklik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik qoʻyilishi, yechish metodikasi va algoritmini ishlab chiqish;

uch qatlamli toʻldiruvchili plastinkaning erkin tebranishlarida kompleks chastotalarni aniqlash va ularning toʻldiruvchi bikirligiga bogʻliq oʻzgarishiga baho berish;

uch qatlamli qovushoq-elastik plastinkalarning majburiy turgʻun tebranishlarda koʻchishlar va kuchlanishlar amplitudalari va chastotalari orasidagi bogʻlanishni toʻldiruvchi bikrligining oʻzgarishiga bogʻliqligini tadqiq qilish va mavjud tajriba natijalari bilan solishtirish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida qovushoq-elastik xususiyatlarga ega boʻlgan uch qatlamli toʻldiruvchili plastinka olingan.

Tadqiqotning predmeti qovushoq-elastik uch qatlamli toʻldiruvchili plastinkaning erkin va majburiy tebranishlarini oʻrganish uchun ishlab chiqilgan metodika va algoritmlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qoʻyilgan masalalarni yechish uchun oʻzgaruvchilarni ajratish, chekli elementlar usuli, Gauss va Myuller usullaridan hamda maxsus funksiyalardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bora uch qatlamli plastinkalarning xos va majburiy tebranishlari masalalari materiallarning qovushoq-elastiklik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik qoʻyilishi Gamilton–Ostrogradskiyning variatsion prinsipidan, yechish metodikasi va algoritmi esa chekli elementlar usuli asosida ishlab chiqilgan;

uch qatlamli qovushoq-elastik plastinkaning majburiy turgʻun tebranishlaridagi koʻchishlar va kuchlanishlar amplitudalari, chastotalari orasidagi bogʻlanish bir jinsli boʻlmagan chiziqli differensial tenglamalar sistemasini yechish orqali muhim boʻlgan amplituda-chastota xarakteristikalari topilgan;

uch qatlamli toʻldiruvchili plastinkaning xos tebranishlari klassik nazariyasiga asoslanib, kompleks chastotalar topilgan, ularning toʻldiruvchi bikrligiga va qalinligiga bogʻliqligini ifodalovchi dispersion munosabatlar orqali tebranishlar formalari qurilgan;

asos inersiyasining oshishi koʻchish amplitudasining oshishiga va tebranishlar davrining kamayishiga olib kelishi hamda asosning massasi 1000 dan 1500 ga oʻzgarishi koʻchishning 26 % ga oshishiga olib kelishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ishlab chiqilgan metodika uch qatlamli qovushoq-elastik plastinkalardan tashkil topgan qurilmalarning parametrlarini tanlash hisobiga yangi avlodini yaratishga, shuningdek, turli mashinasozlik mexanizmlarining mustahkamligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chegaraviy masalaning korrekt qo‘yilishi, keltirib chiqarilgan matematik ifodalarning qat’iyligi, asoslangan yechish usullaridan foydalanish va yechimlarning aniqligini baholash hamda boshqa matematik qo‘yilgan masalalarning yechimlari bilan taqqoslashlar orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati deformatsiyalanuvchan qovushoq-elastik uch qatlamli to‘ldiruvchili plastinkaning erkin va majburiy tebranishlarini tadqiq qilishda ishlab chiqilgan metodika va algoritm bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan metodika, algoritm va dastur radio- elektron qurilmalarida rezonans hodisalarini bartaraf etish uchun parametrlarning optimal qiymatlarini topishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uch qatlamli to‘ldiruvchili plastinkaning tebranishlari masalalari materialning qovushoq-elastiklik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik modellashtirish, nazariyasini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan hisoblash usuli, algoritmi va dasturi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Garmonik kuch ta’sirida hosil bo‘ladigan dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini o‘rganishning nazariy-tajribaviy formulasidan Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Davlat ilmiy texnika dasturlari doirasida 2012-2016-yillarda F-4-14 raqamli “Suyuqlik oquvchi yer osti egri chiziqli quvurning tashqi kuchlar ta’siridagi kuchlanish-deformatsiyalar holatini tadqiq qilish nazariyasini rivojlantirish va hisoblash usullarini ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Buxoro muhandislik-texnologiya institutining 2024-yil 21-maydagi 1-2-1857-sonli ma’lumotnomasi). Natijada bu yuklanish ostida ishlovchi bir jinsli yoki bir jinsli bo‘lmagan sistemalarda hosil bo‘ladigan kuchlanish-deformatsiya holatini baholash imkonini bergan;

uch qatlamli qovushoq-elastik konstruksiyalarning o‘zaro ta’sirini hisobga olish bilan bog‘liq masalalarni yechishda ishlab chiqilgan metodikadan Toshkent kimyo-texnologiya instituti Davlat ilmiy texnika dasturi doirasida 2016-2020-yillarda bajarilgan OT-F4-01 “Qovushqoq suyuqlik oquvchi ko‘p qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli bo‘laklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta’sirida chiziqli bo‘lmagan dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini o‘rganish usullarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2024-yil 29-maydagi 1/01-1544-sonli ma’lumotnomasi). Natijada topilgan analitik yechim va dissertatsiyada ishlab chiqilgan metodikadan foydalanish orqali olingan yechimlar orasidagi farq 15 % dan oshmasligi aniqlangan;

kompozit materiallardan yasalgan konstruksiyalarning deformatsiyasini, chidamliligi, tebranishi va dinamik ishonchliligini hisoblashda dissertatsiyada taqdim qilingan hisoblash usullaridan “Toshkent mexanika zavodi” AJda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi transport vazirligi huzuridagi “O‘ZAVIATSIYA” Fuqaro aviatsiyasi agentligining 2024-yil 16-avgustdagi 01-39/16-2955-sonli ma’lumotnomasi). Natijada kompozit materiallardan tuzilgan konstruksiyalarda hosil boʻladigan deformatsiyasini zamonaviy shaxsiy kompyuterlarda flatterni konstruksiyalarning kuchlanish-deformatsiyalangan holatini tahlil qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari boʻyicha 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida maʼruza qilingan va muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 18 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy nashrlarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, toʻrtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 105 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida oʻtkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Uch qatlamli dissipativ bir jinsli boʻlmagan plastinkalarning erkin va majburiy tebranishlarini oʻrganishga bagʻishlangan adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida, uch qatlamli qovushoq-elastik plastinkalarning erkin va majburiy tebranishlarini oʻrganishga bagʻishlangan adabiyotlar tahlili keltirilgan. Uch qatlamli plastinka tebranishlari materiallarning qovushoqlik xususiyatlarini hisobga olib toʻliq oʻrganilmaganligi adabiyotlar tahlili asosida xulosa qilingan. Qatlamli dissipativ bir jinsli boʻlmagan plastinkalarning erkin va majburiy tebranishlarini ifodalovchi dinamika tenglamalarini keltirib chiqarishda turlicha yondashuvlar mavjudligi koʻrsatib oʻtilgan. Bu yondashuvlarni oʻrganish muhimligi ham adabiyotlar tahlilidan xulosa qilingan. Koʻp qatlamli plastinkalarni yoki konstruksiyalarni hisoblash uchun qoʻllanilayotgan usullar va masalalar, asosan, izotrop plastinka va deformatsiyalanuvchan toʻldiruvchi bilan toʻliq kontaktda boʻlgan holati uchun oʻrganilgan. Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, garmonik yuklanishlar konstruksiyalarga taʼsir qilganda rezonans hodisasi hosil qiladi, uni faqat dissipativ bir jinsli boʻlmagan jismlar mexanikasi usullari bilan oʻrganish maqsadga muvofiq ekanligi koʻrsatilgan. Bir qator hollarda, tayanch bilan bogʻlanishdagi koʻp qatlamli konstruksiyalar garmonik yuklanishlar taʼsirlarida, ularda hosil boʻladigan rezonans holatlarini hisoblashda muhitning qovushqoq-elastik va tayanch inersiyasini hisobga olmaslik katta xatoliklarga olib kelishi mumkinligi koʻrsatib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovushoq-elastik uch qatlamli plastinkalarni tebranish masalasining qoʻyilishi, yechish metodikasi va algoritmi”** deb nomlangan ikkinchi bobida deformatsiyalanuvchan yarim tekislikka oʻrnatilgan uch qatlamli plastinkalarning erkin va majburiy tebranish masalasining qo‘yilishi, yechish metodikasi va algoritmi keltirilgan. Ko‘p qatlamli qovushoq-elastik plastinkalarning harakat differensial tenglamasini olish uchun Gamilton–Ostrogradskiyning variatsion prinsipidan foydalaniladi.

$$\delta I = 0\,,\; I = \int_{t_1}^{t_2} (T - \Pi - U)dt\,. \tag{1}$$

Bu yerda T – mexanik sistemaning kinetik energiyasi; U – deformatsiyaning potensial energiyasi; Π – tashqi kuchlar potensiali. Agar to‘ldiruvchini bikirligi tashqi qatlam bikirligi bilan bir xil tartibda bo‘lsa yoki plastinka o‘lchamlari qalinligiga nisbati katta bo‘lsa, u holda hisoblashlarda uch qatlamli plastinkalar uchun to‘g‘ri chiziqli normal gipotezasini qo‘llash o‘rinli bo‘ladi. Bu holda hisoblashlar bir qatlamli plastinkanikidek bo‘ladi. Farqi ikkinchi bir nechta bikirlik ishtirok etadi (1-rasm).



1-rasm. Uch qatlamli plastinkalarning konstruksiya hisob sxemasi

Uch qatlamli strukturaning deformatsiya modelini qurish uchun kinematik yondashuvdan foydalaniladi. Buning asosida ko‘chishlarni qalinlik bo‘yicha bir xil bo‘lish gipotezasi yotadi (1-rasm). Bu uch o‘lchovli masalani deformatsiyalanuvchi qattiq jism mexanikasining ikki o‘lchovli masalasiga olib keladi. Plitalar va qobiqlar uchun z koordinatasi bo‘ylab o‘lchov qiymati boshqa ikki o‘lchovdan juda kichik bo‘ladi. Ushbu holatda x, y va z o‘qi bo‘ylab ko‘chishlarni argumentga nisbatan darajali qator ko‘rinishida tasavvur qilishimiz mumkin. Ko‘p qatlamli plastinkalarning kinetik va potensial energiyalari quyidagicha olingan:

$$\begin{aligned} T = {} & \frac{1}{2}\sum_{k=1}^{n}\int_{\Omega}\rho_{(k)}h_{(k)}\left[\left(\frac{\partial \vartheta_1^{(k)}}{\partial t}\right)^2 + \left(\frac{\partial \vartheta_2^{(k)}}{\partial t}\right)^2 + \left(\frac{\partial w^{(k)}}{\partial t}\right)^2\right]d\Omega + \\ & + \frac{1}{2}\sum_{k=1}^{n-1}\int_{\Omega}\rho_{[k]}h_{[k]}\left[\frac{1}{4}\left(\frac{\partial \vartheta_1^{(k)}}{\partial t} + \frac{\partial \vartheta_1^{(k+1)}}{\partial t}\right)^2 + \frac{1}{4}\left(\frac{\partial \vartheta_2^{(k)}}{\partial t} + \frac{\partial \vartheta_2^{(k+1)}}{\partial t}\right)^2 + \frac{1}{4}\left(\frac{\partial w^{(k)}}{\partial t} + \frac{\partial w^{(k+1)}}{\partial t}\right)^2\right]d\Omega. \end{aligned} \tag{2}$$

Bu yerda $\rho_{(k)}$ va $\rho_{[k]}$ – qattiq va yumshoq qatlamlarning zichliklari, $h_{(k)}$ va $h_{[k]}$ – qattiq va yumshoq qatlamlarning qalinliklari, qattiq va yumshoq qatlamlarning ko‘chish vektori komponentlari ($\vartheta_1^{(k)}$, $\vartheta_2^{(k)}$, $w^{(k)}$) ($\vartheta_1^{(k+1)}$, $\vartheta_2^{(k+1)}$ $w^{(k+1)}$). Mexanik sistema deformatsiyasining potensial energiyasi va tashqi kuchlar potensiali quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$U = \frac{1}{2}\int_{\Omega}\left[N_{\alpha\beta}e_{\alpha\beta} + M_{\alpha\beta}\frac{\partial^2 w}{\partial x_\alpha \partial x_\beta} - \sum_{\nu=1}^{2} S_{\alpha\beta}^{(\nu)}\frac{\partial \varphi_\alpha}{\partial x_\beta} + \sum_{\nu=1}^{2} Q_{\alpha 3}^{(\nu)}\varphi_\alpha^{(\nu)}\right]d\Omega;$$

$$\Pi = -\int_{\Omega}\left[q_\alpha \vartheta_\alpha + q_3 w + \sum_{\nu=1}^{2} m_\alpha^{(\nu)} \varphi_\alpha^{(\nu)}\right] d\Omega -$$
$$-\int_{\Omega}\left[\bar{N}_\alpha \vartheta_\alpha + \bar{N}_l \vartheta_l - \bar{Q} w - \bar{M}_n \frac{\partial w}{\partial n} + \bar{M}_l \frac{\partial w}{\partial l}\right] d\Gamma, \tag{3}$$

Bu yerda α va β parametrlar bo‘yicha yig‘indi hosil qilinadi (1 dan 2 gacha). Bu energiyalar (2) va (3) dan foydalanib (1) ning variatsiyasini nolga tenglashtirib, ko‘p qatlamli, xususiy holda ikki qatlamli plastinkalarning tebranish tenglamasini olamiz. Kuchlanish va deformatsiya orasidagi munosabatni ifodalovchi irsiy Bolsman-Volter integral bog‘lanishi quyidagicha tasvirlanadi:

$$\sigma_{ij} = \tilde{\lambda} \varepsilon_{kk} \delta_{ij} + 2\tilde{\mu} \varepsilon_{ij} \quad (i, j, k = 1,2,3) \tag{4}$$

Bu yerda elastiklik modullari $\tilde{\lambda}, \tilde{\mu}$ – operator ko‘rinishidagi kattaliklar

$$\tilde{\lambda}_j \varphi(t) = \frac{\nu_j}{(1+\nu_j)(1-2\nu_j)} \tilde{E}_j \varphi(t); \qquad \tilde{\mu}_j \varphi(t) = \frac{\nu_j}{2(1+\nu_j)} \tilde{E}_j \varphi(t),$$

bunda $\tilde{E}$ – operator ko‘rinishdagi elastiklik moduli bo‘lib, quyidagi integral munosabatni ifodalaydi:

$$\tilde{E}\varphi(t) = E_{01}\left[\varphi(t) - \int_0^t R_E(t-\tau)\varphi(t) d\tau\right] \tag{5}$$

$\varphi(t)$ – vaqtning ixtiyoriy funksiyasi; $R_E(t-\tau)$ – relaksatsiya yadrosi; E_{01} – oniy elastiklik moduli; δ_{ij} – Kroneker simvoli: $i = j$ bo‘lsa 1-ga, $i \neq j$ bo‘lsa 0-ga teng. Yuqorida keltirilgan (6) integral had kichik hisoblanadi, shuning uchun $\varphi(t)$ funksiya uchun $\varphi(t) = \psi(t) e^{-i\omega_R t}$ o‘rinli bo‘ladi. Bu kichik chiziqli tebranishlarga mos keladi. Bu yerda $\psi(t)$ – vaqtning sekin o‘zgaruvchi funksiyasi, ω_R – haqiqiy kattalik. U holda (5)-ni quyidagi ifoda bilan taqriban almashtirish mumkin:

$$\bar{E}\varphi = E\left[1 - \Gamma^C(\omega_R) - i\Gamma^S(\omega_R)\right]\varphi,$$

bunda $\Gamma^C(\omega_R) = \int_0^\infty R(\tau)\cos\omega_R \tau \, d\tau, \ \Gamma^S(\omega_R) = \int_0^\infty R(\tau)\sin\omega_R \tau \, d\tau$ – mos ravishda material Fure yadro relaksatsiyasining kosinus va sinus obrazlari. Izotrop materiallar uchun Puasson koeffitsiyenti o‘zgarmas deb olinadi.

Doiraviy uch qatlamli plastinkalarning harakat integro-differensial tenglamalar sistemasi quyidagi ko‘rinishda olingan:

$$\begin{aligned} &\tilde{L}_2(a_1 u + a_2 \psi - a_3 w_{,r}) = 0, \\ &\tilde{L}_2(a_2 u + a_4 \psi - a_5 w_{,r}) = 0, \\ &\tilde{L}_3(a_3 u + a_5 \psi - a_6 w_{,r}) - M_0 \ddot{w} = -q. \end{aligned} \tag{6}$$

Bu yerda $u(r,t), \psi(r,t), w(r,t)$ – mos ravishda to‘ldiruvchining radial ko‘chishi, nisbiy siljish, plastinkalar salqiligi; $M_0 = (\rho_1 h_1 + \rho_2 h_2 + \rho_3 h_3) r_0^2, \rho_k$ – qatlamning (k-chi) zichligi; koeffitsiyentlar $a_1, a_2, a_3, a_4, a_5, a_6$ va $\tilde{L}_2, \tilde{L}_3$ – integro-differensial operatorlar bo‘lib, ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$a_1 = \sum_{k=1}^{3} h_k K_k^+, a_2 = c\left(h_1 K_1^+ - h_2 K_2^+\right), a_3 = h_1\left(c + 0.5h_1\right)K_1^+ - h_2\left(c + 0.5h_2\right)K_2^+,$$

$$a_4 = c^2\left(h_1K_1^+ + h_2K_2^+ + \frac{2}{3}cK_3^+\right), a_5 = c\left[h_1(c+0.5h_1)K_1^+ + h_2(c+0.5h_2)K_2^+ + \frac{2}{3}c^2K_3^+\right],$$

$$a_6 = h_1\left(c^2 + ch_1 + \frac{1}{3}h_1^2\right)K_1^+ + h_2\left(c^2 + ch_2 + \frac{1}{3}h_2^2\right)K_2^+ + \frac{2}{3}c^3K_3^+,$$

$$\widetilde{L}_2(g) \equiv \left[\frac{1}{r}(rg)_{,r}\right]_{,r} \equiv g_{,rr} + \frac{g_{,r}}{r} - \frac{g_{,r}}{r^2},\ \widetilde{L}_3(g) \equiv \left[r\,\widetilde{L}_2(g)\right]_{,r} \equiv g_{,rrr} + \frac{2g_{,rr}}{r} - \frac{g_{,r}}{r^2} + \frac{g}{r^3}.$$

Agar uch qatlamli plastinka Vinkler asosiga o‘rnatilgan bo‘lsa, u holda (6) tenglamalar sistemasi quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\begin{aligned} &\widetilde{L}_2(a_1u + a_2\psi - a_3w_{,r}) = 0,\\ &\widetilde{L}_2(a_2u + a_4\psi - a_5w_{,r}) = 0,\\ &\widetilde{L}_3(a_3u + a_5\psi - a_6w_{,r}) - M_0\ddot{w} - k_0w = -q. \end{aligned} \tag{7}$$

Bu olingan tenglamalar (6) va (7) ni yechish uchun shartlar qo‘yish kerak bo‘ladi. Masalan, r =1 bo‘lganda

$$\begin{aligned} &T_r = T_{r0},\ H_r = H_r^0,\ M_r = M_r^0,\\ &M_{r,r} + \frac{1}{r}(M_r - M_\varphi) = Q^0 \end{aligned} \tag{8}$$

shartlar qo‘yiladi. Bu yerda $T_r,\ M_\alpha, H_\alpha$ lar umumlashgan zo‘riqishlar uchta $u(r,t), \psi(r,t), w(r,t)$ – funksiyalar orqali ifodalanadi

$$\begin{aligned} T_r = {} & \sum_{k=1}^{3} h_k(K_k^+u_{,r} + \frac{u}{r}K_k^-) + c(K_1^+h_1 - K_2^+h_2)\psi_{,r} + \\ & + c(K_1^-h_1 - K_2^-h_2)\frac{\psi}{r} - \left[K_1^+h_1(c+\frac{h_1}{2}) - K_2^+h_2(c+\frac{h_2}{2})\right]w_{,rr} - \\ & - \left[K_1^-h_1(c+\frac{h_1}{2}) - K_2^-h_2(c+\frac{h_2}{2})\right]w_{,rr}/r. \end{aligned} \tag{9}$$

Xuddi shunday T_r dan foydalanib, T_φ ni topish mumkin, buning uchun K_k^+ va K_k^- o‘rinlari almashtiriladi

$$\begin{aligned} T_\varphi = {} & \sum_{k=1}^{3} h_k(K_k^-u_{,r} + \frac{u}{r}K_k^+) + c(K_1^-h_1 - K_2^-h_2)\psi_{,r} + \\ & + c(K_1^+h_1 - K_2^+h_2)\frac{\psi}{r} - \left[K_1^-h_1(c+\frac{h_1}{2}) - K_2^-h_2(c+\frac{h_2}{2})\right]w_{,rr} - \\ & - \left[K_1^+h_1(c+\frac{h_1}{2}) - K_2^+h_2(c+\frac{h_2}{2})\right]w_{,rr}/r. \end{aligned} \tag{10}$$

Yuqorida keltirilgan formulalarga o‘xshash M_α, H_α umumlashgan momentlar topiladi. To‘g‘ri to‘rtburchakli plastinkalar va to‘ldiruvchining bo‘yi va eni mos ravishda *a*, *b* bo‘lsin. Plastinkalar bilan to‘ldiruvchi orasida kuchlanishlar va ko‘chishlarning uzluksizlik sharti qo‘yiladi. Plastinkalarning chekkalariga quyidagi shartlar qo‘yilgan:

$$\begin{aligned} &w_1(x,y,t)\big|_{\substack{x=0\\x=a}} = 0,\quad w_1(x,y,t)\big|_{y=\pm\frac{b}{2}} = 0,\\ &\frac{\partial^2 w_1}{\partial x^2}(x,y,t)\big|_{\substack{x=0\\x=a}} = 0, \frac{\partial^2 w_1}{\partial y^2}(x,y,t)\big|_{y=\pm\frac{b}{2}} = 0, \end{aligned} \tag{11}$$

$$w_2(x,y,t)\Big|_{\substack{x=0\\x=a}}=0,\quad w_2(x,y,t)\Big|_{y=\pm\frac{b}{2}}=0,$$
$$\frac{\partial^2 w_2}{\partial x^2}(x,y,t)\Big|_{\substack{x=0\\x=a}}=0,\frac{\partial^2 w_2}{\partial y^2}(x,y,t)\Big|_{y=\pm\frac{b}{2}}=0.$$

Faraz qilamiz, plastinkaning o‘rta qatlami polimer material bo‘lsin. U holda qatlamdagi normal kuchlanish quyidagicha aniqlanadi: $\sigma_{33}=Ke,\ e-$ nisbiy hajmiy kengayish. To‘ldiruvchi tenglamasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$a^2\left(\frac{\partial^2 e}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 e}{\partial y^2}\right)\ -12\tilde{c}e=\frac{12\tilde{c}}{h}(w_1-w_2)\ .$$

Bunda $\tilde{c}[f(t)]=c\left(f(t)-\int\limits_0^t R_c(t-\tau)f(\tau)d\tau\right)$, $c=\frac{G_0a^2}{Kh^2}$, G_0 – oniy siljish moduli, $R_c(t-\tau)$ – relaksatsiya yadrosi.

Plastinkaning tenglamalari quyidagi ko‘rinishda olingan:

$$\begin{aligned}
&\tilde{D}\left(\frac{\partial^4 w_1}{\partial x^4}+2\frac{\partial^4 w_1}{\partial x^2\partial y^2}+\frac{\partial^4 w_1}{\partial y^4}\right)+\rho h_0\frac{\partial^2 w_1}{\partial t^2}=q(t)-Ke(x,y,t),\\
&\tilde{D}\left(\frac{\partial^4 w_2}{\partial x^4}+2\frac{\partial^4 w_2}{\partial x^2\partial y^2}+\frac{\partial^4 w_2}{\partial y^4}\right)+\rho h_0\frac{\partial^2 w_2}{\partial t^2}=Ke(x,y,t),\\
&a^2\left(\frac{\partial^2 e}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 e}{\partial y^2}\right)-12\bar{c}e=\frac{12\bar{c}}{h}(w_1-w_2).
\end{aligned}\tag{12}$$

Bunda

$$D[f(t)]=D_0\left(f(t)-\int\limits_0^t R_D(t-\tau)f(\tau)d\tau\right),\ D_0=\frac{E_0h^3}{12(1-\nu^2)},\ K=\frac{E_0}{3(1-2\nu)}-$$

$R_D(t-\tau)$, $R_K(t-\tau)$ – relaksatsiya yadrolari, $f(t)$ – vaqtning ixtiyoriy funksiyasi. Uch qatlamli qovushoq-elastik plastinkalarning erkin va majburiy tebranish masalalari ko‘riladi.

Erkin tebranish masalasi ko‘rilganda xosmas integral (12) quyi chegarasi noldan boshlanadi.

Majburiy turg‘un tebranish masalasi yechilganda integralning quyi chegarasi $-\infty$ dan boshlanadi.

Agar turg‘un bo‘lmagan jarayon o‘rganilsa, integralning quyi chegarasi noldan boshlanadi. Integro-differensial tenglamalar sistemasining yechimini quyidagi ko‘rinishda izlaymiz:

$$\begin{aligned}
w_1(x,y,t)&=w_1^\bullet(x,y)e^{-ipt},\\
w_1(x,y,t)&=w_2^\bullet(x,y)e^{-ipt},\\
e\ (x,y,t)&=e_2^\bullet(x,y)e^{-ipt}.
\end{aligned}\tag{13}$$

Bu yerda $w_1^\bullet(x,y),w_2^\bullet(x,y),e_2^\bullet(x,y)-$ ko‘chish amplitudasi bo‘lib, kompleks kattalik. Agar (13)ni (12)ga qo‘ysak, ba’zi shakl almashtirishlardan so‘ng (12) tenglama quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\begin{aligned}
&\bar{D}\left(\frac{\partial^4 w_1^\bullet}{\partial x^4}+2\frac{\partial^4 w_1^\bullet}{\partial x^2\partial y^2}+\frac{\partial^4 w_1^\bullet}{\partial y^4}\right)\ -p^2\rho h_0w_1^\bullet=A-Ke^\bullet(x,y),\\
&\bar{D}\left(\frac{\partial^4 w_2^\bullet}{\partial x^4}+2\frac{\partial^4 w_2^\bullet}{\partial x^2\partial y^2}+\frac{\partial^4 w_2^\bullet}{\partial y^4}\right)-p^2\rho h_0w_2^\bullet=Ke^\bullet,\\
&a^2\left(\frac{\partial^2 e^\bullet}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 e^\bullet}{\partial y^2}\right)-12\bar{c}e^\bullet=\frac{12\bar{c}}{h}(w_1^\bullet-w_2^\bullet).
\end{aligned}\tag{14}$$

Bunda $\overline{D} = D_0\left(1-\Gamma_D^c - i\Gamma_D^c\right)$, $K = K_0\left(1-\Gamma_K^c - i\Gamma_K^c\right)$.

Agar (14) kompleks koeffitsiyentli differensial tenglamalar sistemasining birinchi ikkita tenglamasini qo‘shsak va ayirsak, quyidagi ko‘rinishda diffirensial tenglamalar sistemasini olamiz:

$$\begin{aligned} &\overline{D}\Delta\Delta\left(w_1^\bullet + w_2^\bullet\right) - p^2\rho h_0(w_1^\bullet + w_2^\bullet) = A, \\ &\overline{D}\Delta\Delta\left(w_1^\bullet - w_2^\bullet\right) - p^2\rho h_0(w_1^\bullet - w_2^\bullet) = A - 2Ke^\bullet. \end{aligned} \tag{15}$$

Quyidagicha o‘zgaruvchilarni almashtirish orqali:

$$u_1 = w_1^\bullet(x,y) + w_2^\bullet(x,y),\; u_2 = w_1^\bullet(x,y) - w_2^\bullet(x,y) \tag{16}$$

U holda (15) tenglama quyidagi ko‘rinishni egallaydi:

$$\begin{aligned} &\overline{D}\left(\frac{\partial^4 u_1}{\partial x^4} + 2\frac{\partial^4 u_1}{\partial x^2 \partial y^2} + \frac{\partial^4 u_1}{\partial y^4}\right) - p^2\rho h_0 u_1 = A, \\ &\overline{D}\left(\frac{\partial^4 u_2}{\partial x^4} + 2\frac{\partial^4 u_2}{\partial x^2 \partial y^2} + \frac{\partial^4 u_2}{\partial y^4}\right) - p^2\rho h_0 u_2 = A - 2Ke^\bullet, \\ &a^2\left(\frac{\partial^2 e^\bullet}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 e^\bullet}{\partial y^2}\right) - 12\overline{c}e^\bullet = \frac{12\overline{c}}{h}u_2. \end{aligned} \tag{17}$$

Bu (17) tenglamalar sistemasidagi ikkinchi va uchinchi tenglamalar birgalikda yechiladi. Birinchi tenglamaning yechimini quyidagi ko‘rinishda izlaymiz: $u_1 = u_1^{(1)} + u_1^{(0)}$, $u_1^{(1)}$ – bir jinsli differensial tenglamaning umumiy yechimi, $u_1^{(0)}$ – bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglamaning xususiy yechimi.

Bu birinchi tenglamani yechish uchun $x = a\eta_1, y = \frac{b}{2}\eta_2$ o‘zgaruvchilarni almashtiramiz. Bir jinsli tenglamaning yechimini quyidagi ko‘rinishda izlaymiz:

$$u_1^{(1)}(\eta_1,\eta_2) = \sum_{m=1}^{\infty} U_{1m}(\eta_2)\sin(\pi m\eta_1), \tag{18}$$

Oxirgi olingan (18) yechimni (17)ning birinchi tenglamasiga qo‘ysak, quyidagi bir jinsli kompleks koeffitsiyentli to‘rtinchi tartibli oddiy differensial tenglamani olamiz:

$$U_{1m}^{IV} - \frac{\pi^2 m^2 b^2}{2a^2}U_{1m}^{II} + \left(\frac{\pi^4 m^4 b^4}{16a^4} - \frac{p^2\rho h_0 b^4}{16\overline{D}}\right)U_{1m} = 0. \tag{19}$$

Oddiy (19) differensial tenglamaning yechimi tebranishlar nazariyasi fanida juda yaxshi ishlab chiqilgan Krilov funksiyalari orqali ifoda qilinadi. Bir jinsli bo‘lmagan tenglamaning xususiy yechimini ham umumiy holda o‘zgarmaslarni variatsiyalash usuli bilan topish mumkin. Yuqorida keltirilgan (17) tenglamalar sistemasidagi ikkinchi va uchinchi tenglamalar birgalikda yechilishi kerak. Bu tenglamalar uchun ham $x = a\eta_1, y = (b/2)\eta_2$ almashtirish bajaramiz

$$\begin{aligned} &\frac{\partial^6 e^\bullet}{\partial \eta_2^6} + \frac{3b^2}{4a^2}\frac{\partial^6 e^\bullet}{\partial \eta_1^2 \partial \eta_2^4} - \frac{3\overline{c}b^2}{a^2}\frac{\partial^4 e^\bullet}{\partial \eta_2^4} + \frac{3b^4}{16a^4}\frac{\partial^6 e^\bullet}{\partial \eta_1^4 \partial \eta_2^2} - \frac{3\overline{c}b^4}{2a^4}\frac{\partial^4 e^\bullet}{\partial \eta_1^2 \partial \eta_2^2} - \\ &- \frac{\rho h_0 p^2 b^4}{16\overline{D}}\frac{\partial^2 e^\bullet}{\partial \eta_2^2} + \frac{b^6}{64a^6}\frac{\partial^6 e^\bullet}{\partial \eta_1^6} - \frac{3\overline{c}b^6}{16a^6}\frac{\partial^4 e^\bullet}{\partial \eta_1^4} - \frac{\rho h_0 p^2 b^6}{64a^2\overline{D}}\frac{\partial^2 e^\bullet}{\partial \eta_1^2} - \\ &- \left(\frac{24\overline{c}K}{\overline{D}ha^2} - \frac{12\overline{c}\rho h_0 p^2}{\overline{D}a^2}\right)\frac{b^6}{64}e^\bullet = -\frac{3\overline{c}Ab^6}{16a^2 h}. \end{aligned} \tag{20}$$

Oxirgi (20) tenglamaning yechimini $e^\bullet = e_1^\bullet + e_2^\bullet$ yig‘indi ko‘rinishida izlaymiz, $e_1^\bullet$ – bir jinsli tenglamaning yechimi, $e_2^\bullet$ – bir jinsli bo‘lmagan tenglamaning xususiy yechimi. Bir jinsli tenglamaning yechimini quyidagi ko‘rinishda qidiramiz:

$$e_1^{\bullet}(\eta_1,\eta_2)=\sum_{m=1}^{\infty}Y_m(\eta_2)\sin(\pi m\eta_1) \qquad (21)$$

Agar (21) yechimni (20) tenglamaga qo‘ysak, u holda to‘rtinchi tartibli kompleks koeffitsiyentli differensial tenglamani olamiz

$$\begin{gathered}Y_{1m}^{IV}-\left(\frac{3\pi^2m^2}{4}+3\bar{c}\right)Y_{1m}^{IV}+\left(\frac{3\pi^4m^4}{16}+\frac{3\bar{c}\pi^2m^2}{2}-\frac{p^2\rho h_0b^4}{16\bar{D}}\right)Y_m^{II}-\\-\left(\frac{\pi^6m^6}{64}+\frac{3\bar{c}\pi^4m^4}{16}-\frac{p^2\rho h_0b^4\pi^2m^2}{16\bar{D}}+\frac{3\bar{c}Kb^4}{8\bar{D}h}-\frac{3\bar{c}p^2\rho h_0b^4}{16\bar{D}}\right)Y_m=0.\end{gathered} \qquad (22)$$

Bu (22) oddiy differensial tenglamaning yechimini ham tebranishlar nazariyasi fanida juda yaxshi ishlab chiqilgan Krilov funksiyalari orqali ifoda qilinadi. Bir jinsli bo‘lmagan tenglamaning xususiy yechimi ham umumiy holda o‘zgarmaslarni variatsiyalash usuli bilan topish mumkin.

Doiraviy yuzali qovushoq-elastik uch qatlamli plastinkalarning tebranish masalasini yechish usullari haqida. Yuqorida keltirilgan (8) va (9) tenglamalar, o‘zgaruvchilarni ajratish usuli va muzlatish usullarini qo‘llab Bessel yoki Gelmgols tenglamalari olingan. Ularning yechimlari Bessel va Neyman yoki Xankel funksiyalari orqali ifodalanadi.

$u(r,t),\psi(r,t),w(r,t)$ noma’lum kattaliklarni topish uchun quyidagi ko‘rinishda olingan:

$$\begin{gathered}w(r,t)=\sum_{m=0}^{\infty}v_mT_m(t),\ \psi(r,t)=b_2\sum_{m=0}^{\infty}\varphi_mT_m(t),u(r,t)=b_1\sum_{m=0}^{\infty}\varphi_mT_m(t),\\ \varphi_m(r,t)=\frac{\lambda_m}{d_m}\left\{J_1(\lambda_mr_1)r-J_1(\lambda_mr)+\frac{J_0(\lambda_mr_1)}{I_0(\lambda_mr_1)}\left[I_1(\lambda_mr_1)r-J_1(\lambda_mr)\right]\right\},\\ b_1=\frac{a_3a_4-a_2a_5}{a_1a_4-a_2^2},b_2=\frac{a_1a_5-a_2a_3}{a_1a_4-a_2^2}.\end{gathered} \qquad (23)$$

Vaqt bo‘yicha noma’lum bo‘lgan funksiya o‘zgaruvchilarni ajratish usuli bilan topiladi

$$T_m(t)=A_m\cos(\omega_mt)+B_m\sin(\omega_mt)+\frac{q_m}{\omega_m^2}\left[1-\cos(\omega_mt)\right]. \qquad (24)$$

Yuqorida keltirilgan (23) va (24) tenglamalar yordamida uch qatlamli plastinka nuqtalaridagi ko‘chishlar va zo‘riqishlar topiladi.

